

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

T. J. ENAZAROV, V. A. KARIMJONOVA,
M. S. ERNAZAROVA, SH. S. MAHMADIYEV, K. G‘. RIXSIYEVA

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

(o‘quv qo‘llanma)

Toshkent
“UNIVERSITET”
2012

Mazkur ishda mualliflar bu sohadagi bir necha yillik tajribani va ilmiy-amaliy kuzatishlarini jamlab berishga harakat qilgan. Unda quyidagi bo‘limlar bor: Kirish, ma‘ruza mavzulari, ishchi o‘quv dasturi, test savollari, amaliy mashg‘ulot savollari, dialektologik amaliyot uchun ko‘rsatmalar, yozma ishlarni baholash mezonlari, “Dialektologik amaliyot” vaqtida to‘plangan materiallardan namunalar, Ilova, adabiyotlar ro‘yxati. Ularda mualliflar shu fan sohasidagi ilmiy-nazariy fikrlarni qayd etib, bu fanni o‘qitishning, shuningdek, har yili ushbu fandan “Dialektologik amaliyot”ni o‘tkazish jarayoniga oid yo‘l-yo‘riqlar majmuining o‘ziga xos jihatlarini va yaratilishi lozim bo‘lgan ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni tuzish muammosining bugungi kungacha e‘tiborga olinmagan tomonlari haqida to‘xtalgan.

Ushbu darslik filolog talabalarga, shuningdek, o‘zbek shevashunosligining dolzarb muammolari bilan qiziqqan tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘quv-metodik kengashining 2011-yil 14-noyabrdagi majlisida nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir prof.R.Sayfullayeva
Taqrizchilar: f.f.d.,prof.S.Ashirboyev
f.f.n., dots.M.Qodirov
p.f.n., dots.S.Yo‘ldoshyeva
f.f.n. N.Shoimova

ISBN – 978-9943-305-52-6

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning mustaqillikka erishganiga ham 20 yildan oshdi. Mana shu davr ichida yurtimizda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya, texnika, iqtisodiyot, siyosat sohalarida mustaqillik tufayli juda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bundan keyin ham ular davom etaveradi. Shu sababli ular adabiy tilimizda ham, shevalarimizda ham o'z ifodasini topmoqda.

O'zbek adabiy tili xalq shevalaridan o'ziga kuch oladi, chunki sheva bo'lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo'lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo'lmasa, har qanday adabiy til vaqt o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir. U(lar)ni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva terminlari bilan atash kuzatiladi. Biz u(lar)ni sheva deb, bitta termin bilan atashni o'rinli hisoblaymiz. Shu o'rinda shevashunosligimizning buguni hamda kelajagi haqida o'ylab ko'rib, shuningdek, bu sohada ilmiy ishlari bilan tanilgan bir qancha tadqiqotchi olimlarning fikr-mulohazalarini e'tiborga olib, ushbu ishni tayyorladik.

Shevashunosligimizning tarixi XI asarning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. Uning "Devonu lug'atit turk" asari turkiy xalqlar shevalarining so'zligini arab tilida izohlab, o'zida jamlagan mukammal va bebaho lug'atlardan biri sanaladi. Shu asarning "Indeks lug'ati" ham olimlarimiz tomonidan tayyorlangan. Mana shu lug'at bahona turkiy qabila-urug'larning tillari bir bobo tildan rivojlanib, taraqqiy etganligi haqidagi ilmiy-nazariy qarash dalillar asosida tasdiqlandiki, bu hol ona tilimizning o'ziga xos nufuzini va tarixiy taraqqiyotini dalillar vositasida tasdiqlab turibdi. Hazrat Alisher Navoiy ham bundan sal kam olti asr oldin mana shu turkiy tilda, ya'ni eski o'zbek adabiy tilida she'rlar yozib, olamni qurolsiz holda, qalam bilan egallagan allomalardan biri sanaladi. Mana shuning natijasida o'sha vaqtda Xuroson hukmdori bo'lgan Husayn Boyqaro tilimizga Davlat tili darajasini berish to'g'risidagi tarixiy farmonini e'lon qilishga majbur bo'lgan. Xonliklar davrida ham garchi o'sha vaqtda tilimiz bo'yicha chuqur ilmiy asoslarda tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, tilimiz ijtimoiy hayotdagi mavqeini saqlab qolganligi va kuchaytirganligi tarixda hech ham rad qilib bo'lmaydigan dalillar orqali o'z ifodasini topgan.

XX asrning 20-80-yillarida, ya'ni sho'ro davrida tilimizga yanada taraqqiy etish uchun katta huquqlar berilmagan bo'lsa hamki, bir qancha rus sharqshunos olimlarining harakatlari bilan ona tilimiz hamda uning asosiy manbasi bo'lgan shevalarimizni ham ilmiy, ham amaliy asoslarda o'rganishni boshlashgan edi. Bu olimlar shevalarimiz haqidagi ilmiy ishlari bilan adabiy til haqida gapirish uchun uning shevalarini o'rganish lozimligi masalasini dalillar vositasida ko'ra olishdi. Natijada, E. D. Polivanov, K.K.Borovkov, I.I.Zarubin, K.K.Yudaxin kabi o'nlab sharqshunos hamda dialektolog olimlarining shevalarimiz to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari maxsus tashkil etilgan dialektologik

ekspeditsiyalar vaqtida yaratilgan va bugungi kunda ham shevalarimizni o'rganish bo'yicha bebaho manbalar qatoridan ularning ilmiy ishlari o'rin olganligini tan olish shart. Rus olimlarining tadqiqotlari natijasida O'zFA qoshida A.S.Pushkin (Hozirgi Alisher Navoiy) nomidagi Til va adabiyot instituti ish boshlagan. Bu yerda XX asrning ikkinchi yarmidan o'zbek xalq shevalarini o'rganish va ilmiy asoslarda tadqiq etish uchun maxsus Dialektologiya bo'limi tashkil etilgan edi. Unda V.V.Reshetov, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, B.Jo'rayev, X.Doniyorov, Yo.G'ulomov, Yu.Jumanazarov, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, N.Rajabov, Q.Muhammadjonov, N.Shoimova kabi dialektolog olimlarning bebaho ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy ishlari yuzaga keldiki, bu holni jahon olimlari tan olishganligini hammamiz bilamiz. Bugungi kunda esa ushbu bo'limda faqat bir necha olimlar ishlashmoqda. Ularning ishlarini kuchaytirish hamda qo'llab-quvvatlash lozim. Hatto, bu davrda o'zbek dialektologiyasi va umuman, o'zbek tilshunosligi masalalari bo'yicha bir qancha ilmiy anjumanlar ham bo'lib o'tgan.

1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Ushbu maqomni bergan qonun ona tilimizga, shuningdek, o'zbek xalq shevalariga jiddiy e'tibor berib, ilmiy tadqiqotlar olib borishga qonuniy imkoniyatlarni yaratib berdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng davlatimiz miqyosida dunyo jamoatchiligi lol qoladigan darajada xalq manfaati nuqtayi nazaridan juda ko'p ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Ammo ba'zi bir sohalar e'tiborimizdan chetda qolmoqda. Mana shunday sohalaridan biri, albatta, o'zbek shevashunosligi sanaladi. Bunga sabab nima? Bu holga, bizningcha, quyidagi hollar sabab bo'ldi:

1. So'zsiz, mustaqillik bizga ko'p narsa berdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng shevalarimizni ilmiy asoslarda nazariy va amaliy jihatlardan o'rganish masalasiga jiddiy e'tibor kerak bo'lib qoldi. Shevalarimiz ham tilimiz singari taraqqiyotda ekan, demak, ularni ma'lum bir davrlarda ham amaliy, ham nazariy jihatlardan o'rganish, ular asosida ma'lum nazariy xulosalarga kelishning zarurligi tabiiy hol. Axir Mahmud Koshg'ariy o'z asarida qayd etgan so'zlar va hatto, XX asrning 70-yillarida qayd etilgan dialektal so'zlar bugun shevalarimizda kam qo'llanmoqda va ba'zilar umuman qo'llanmayapti. Chunki ba'zi bir shevalarimizni XX asrning 50-70-yillaridan turib o'rganilganiga ham mana 40 (qirq) yildan oshib ketdi. Demak, shevalarimizni XXI asrdan turib Mahmud Koshg'ariy darajasidan-da yuqoriroq turib o'rganish zaruriyati kun tartibida turibdi. Albatta, hukumatimiz odilona ish olib bormoqda, gap faqat o'zimizda qolgan. Ona tilimizning o'zagi – qon tomiri bo'lgan shevalarimizni o'rganib, ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish uchun bamaslahat holda ish yuritib, xalq ommasiga ham, rahbariyatimizga ham tushuntirishimiz zarur. Shunda ilmiy mavzular bo'yicha e'lon qilinayotgan ilmiy konkursning tashkilotchilari ham o'zbek xalq shevalarini o'rganish ayni shu

kunlar uchun juda zarur va muqaddas ish ekanligini anglashib, sheva hamda lahjalarimizni ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatlardan o'rganish uchun maxsus tadqiqot ishlariga mablag' ajratishlari tabiiy holdir.

2. Shevalarimizni ilmiy hamda amaliy jihatlardan tadqiq etuvchi shevashunoslarimizga ham e'tiborni kuchaytirish lozim. Shevalarimizni XXI asrdan turib mukammal o'rganish va ilmiy asoslarda tadqiq etilish bugungi zamon talablaridan biri hisoblanadi. Shevashunoslarni ham, ular to'plagan sheva materiallarini ham hsu soha bo'yicha bir ilmiy ishlarni amalga oshiradigan tashkilotga jamlash lozim.

3. Shevashunosligimiz bo'yicha keng qamrovli yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati sezilmoqda. Chunki oldin, ya'ni XX asrning 40-80-yillarida o'rganilganda shevalarimiz hududiy jihatdan atroflicha to'liq tadqiq etilmagan edi. To'g'rirog'i, to'liq tadqiq etishning imkoniyati ham yo'q edi. O'sha vaqtlarda shevalarimiz tizimidan ba'zi bir shevalar umuman o'rganilmay qolib ketgan edi. Bu esa shevalarimizni har tomonlama to'liq o'rganish ta'limning magistratya bosqichida ham davom ettirish lozimligini ko'rsatib turibdi.

4. Shevalarimiz o'zbek adabiy tilining poydevori va o'sish-o'zgarishining o'zagi sanaladi. Demak, shevalarimizni ilmiy asoslarda o'rganishga, albatta, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy va ilmiy-nazariy jihatlardan ehtiyoj sezilmoqda. Sababi, shevalarimiz o'zbek milliy tilining va o'zbek milliy tilshunosligimizning asosi va doimiy poydevori hisoblanadi. Ammo bu sohada hali juda ko'p ishlar amalga oshirilmagan. Ularga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

4.1. Tan olishimiz kerak, hozirgacha lahjalar va shevalararo dialektologik lug'atlar mukammal holda yaratilmagan. O'zbek xalq shevalarining lug'aviy boyligini o'zida jamlagan va umumiy holda ifodalaydigan bor-yo'g'i bittagina "O'zbek xalq shevalari lug'ati" yaratilgan (T., Fan, 1971). Unda filologiya fanlari nomzodi, etakchi ilmiy xodim Ahmad Ishayev (marhum) tuzgan "O'zbek shevalarida qarindosh-urug' nomlari" bilan birga 9500 (to'qqiz yarim ming) atrofida shevalarimizga oid dialektal so'z mavjud. Bu lug'atning sobiq sho'ro davrida yaratilganiga e'tibor bersak, bunday lug'atning yaratilishi ham o'sha vaqtdagi dialektolog olimlarning katta muvaffaqiyatlaridan biri bo'lganligini e'tirof etish kerak. Shu bilan birga tadqiq etilgan har bir sheva bo'yicha so'zlar o'sha tadqiqotlarda hali hanuz qolib ketmoqda, ularning miqdori o'ttiz ming atrofida ekanligi Ahmad Ishayev tomonidan asoslab, birma-bir ko'rsatib berilgan¹. Bizningcha, ular leksikografik nuqtai nazardan saralangan holda kelajakda yaratiladigan ko'p tomli "O'zbek xalq shevalari lug'ati"da qayd etilishi maqsadga muvofiqdir.

4.2. Shevalarimizning dialektologik atlaslarini yaratish bo'yicha XX asrning 60-80-yillarida ilmiy ishlar olib borilgan. Turli ilmiy manbalarda V. V.

¹ Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi. T., Fan, 1990. 20-45-betlar.